

## SITORAI MOHI XOSA ETNOGRAFIK MUZEY

**Boltayev A.H.**

Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro  
tarixi kafedراس dotsent, t.f.f.d.(PhD)

[azam.boltaev.2015@mail.ru](mailto:azam.boltaev.2015@mail.ru)

**Odilov Jahongir Amon o'g'li**

Buxoro davlat universiteti Etnografiya yo'nalishi  
2-bosqich magistranti

**Kalit so'zlar:** Buxoro, Samarqand, shahar, muzey, etnografiya, kiyimlar ko'rgazmasi, ekspozisiya, amir, mang'itlar sulolasi, saroy, me'mor, san'at, xanai hasht, kanizakxona.

**Ключевые слова:** Бухара, Самарканд, город, музей, этнография, выставка одежды, экспозиция, эмир, династия мангытов, дворец, архитектор, искусство, Ханай хашт, наложница.

**Keywords:** Bukhara, Samarkand, city, museum, ethnography, clothing exhibition, exposition, emir, Mangyt dynasty, palace, architect, art, Hanai hasht, concubine.

**Annotasiya:** Mazkur maqolada Sitorai Mohi Xosa saroyining kurulishi uning muzeyga aylantirish tarixi haqidagi ma'lumotlar joy olingan. Sovet davrida olib borilgan siyosat natijasida bir qator tarixiy yodgorliklarga zarar etgan shular qatori Sitorai Mohi Xosa saroyiga ham va u mezeyga aylantirilib, hozirgi kunga qadar majmua saqlangan. Sitorai Mohi Xosa saroyida etnografiyaga oid ko'rgazmalar sovet davrida ham namoyishga qo'yilgan bo'lib, mustaqillik sharofati bilan majmua restavrasiya qilindi va hozirga kunda ham etnografiyaga oid bo'limlari faoliyat yuritmoqda.

**Аннотация:** В этой статье представлена информация об истории строительства Дворца Ситорай Мохи Хоса и его превращении в музей. В

результате советской политики был поврежден ряд исторических памятников, в том числе дворец Ситорай Мохи Хоса, который был преобразован в музей, где комплекс сохранился до наших дней. Во дворце Ситорай Мохи Хоса этнографические выставки выставлялись и в советское время, благодаря независимости комплекс был отреставрирован и до сих пор функционирует его этнографический отдел.

**Abstract:** This article provides information about the history of the construction of the Sitorai Mohi Khosa palace and its transformation into a museum. As a result of Soviet policy, a number of historical monuments were damaged, including the Sitorai Mohi Khosa palace, which was transformed into a museum, where the complex has been preserved to this day. Ethnographic exhibitions were also exhibited in the Sitorai Mokhi Khosa palace in Soviet times, thanks to independence, the complex was restored and its ethnographic department is still functioning.

**Kirish.** Buxoroda mang‘itlar sulolasining hukmdorlari tomonidan ko‘plab tarixiy inshootlar barpo etilgan bo‘lib, Sitorai Mohi Xosa me‘moriy majmuasi shular qatoridandir. Sitorai Mohi Xosa saroyi Buxorodan 4 km shimolda, Samarqand yo‘lining yoqasida Buxoroning so‘nggi amirlari mang‘itlar sulolasining shahar tashqarisidagi eng ko‘rkam yozgi saroyi bo‘lib, bu saroy XIX asr oxirlarida qurilgan.

**Muhokama.** Saroyning dastlabki imoratlari amir Nasrulloxon hukmronligi davri (1826-1860 yillar)da qurilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi amir Muzaffarxon hukmronligi davrida (1860-1885 yillar) mashhur saroy me‘mori Ostonqul Hafizov saroyning yangi loyihasini yaratdi va saroy majmuasi qurilishini davom ettirgan. Biroq bu yerda saroy va xushmanzara bog‘ barpo qilish amir Abdulahad Bahodirxon hukmronligi davrida (1885-1910 yillar) amalga oshirilgan.

Saroy qurilishiga me‘mor usta Hoji Hafiz rahbarlik qilgan. Amir Abdulahadxon saroy qurilishida usta Nasrulloboy va usta Ostonqullar ham ishtirok etishgan. Yozgi saroyning asosiy binolari so‘nggi Buxoro amiri Amir Sayyid Olimxon

hukmronligi davrida (1911-1920 yillar) qurilgan va shu davrdan boshlab saroy majmuasi yangi va eski saroyga ajratiladigan bo'ldi.

“Oyga o'xshash yulduzlar” deb nomlangan bu saroy XIX asr oxiri XX asr boshlarida usta Xo'ja Hafiz, Abdulla G'afur, Karim (Taxta) Samadov, Qori Cho'bin, Usta Hoji Qurbon, usta Boborahim Hayotov va usta Shirin Murodovlar tomonidan qurilgan. Saroy kompleksi (majmuasining) umumiy maydoni 6,7 gektarlikni tashkil qilib, chorbog', qabulxona, haram, kanizakxona, ko'shk, masjid va filxonalardan tashkil topgan .

Buxkomstaris amalga oshirgan o'lkashunoslik tadqiqotlari natijasida Buxoro Registonining g'arbida joylashgan Bolohovuz masjidining qurilish tarixi to'g'risida kamyob dalillar qo'lga kiritildi. Chunonki, Bolohovuz masjidi Ashtarxoniy Abulfayzxonning (1711 – 1747) onasi “Bibi podshoh” taxallusini olgan Sitorai Mohi Xosa tomonidan qurilgan. Sitorai Mohi Xosa nomli hozirgi amir saroyi o'rnida shu ayol tomonidan bog' barpo etilgan. Amir Abdulahad (1885-1910) zamoniga kelib bu bog' xaroba holga tushib qolgan. Amir Abdulahad bog'ni obod qilib uning tarixiy nomini qayta tiklaydi va unga “Sitorai Mohi Xosa” nomini beradi. Buxkomstarisning ma'lumotlari Sitorai Mohi Xosa saroyi va saroy nomining paydo bo'lishi to'g'risida hozirgi mavjud ma'lumotlar, shuningdek, xalq og'zida yurgan rivoyatlar mazmunini butunlay o'zgartirib yuboradi.

Saroy bog'ining rejasi diqqatga sazovordir. Saroyning barcha binolari bog' ichida joylashganligiga qaramay, bog'ning rejasi mustaqil desa bo'ladi. Bog' saroy binolari qurilmasidan oldin barpo qilingan. U Temur va temuriylar davridagi Samarqand bog'lariga o'xshash an'anaviy chorbog'lar shaklida rejalangan. Saroy bog'ining atrofi paxsa devor bilan o'ralgan. Yozgi saroy bog'ida gulzorlar, ishkamlar, mevali va manzarali daraxtlar, ko'rkam xiyobonlar, hovuzlar va hayvonot bog'lari barpo qilingan.

Arxiv ma'lumotlariga karaganda, Sitorai Mohi Xosa saroyi 1931 yildan boshlab Buxoro muzeyi sifatida faoliyat boshladi. Keyinchalik bog'ning yarmida sanatoriya ham tashkil qilingan va hozir ham bu muassalar faoliyat olib bormoqda.

Qoryog‘di Jumayev ma‘lumotiga ko‘ra, XX asr 50-yillarida bebaho madaniy merosimiz mafkuralashtirilib, Sitorai Mohi Xosa saroyi va uning atrofidagi chorbog‘ga tiklab bo‘lmas darajada shikast yetkazildi, ko‘pgina nodir ashyolar talon-toroj qilindi, bog‘dagi noyob daraxtlar, o‘simliklar va xayvonlar yo‘q qilib tashlandi.

1968 yilda Moxi Xosada “Xalq ijodiyoti” nomli ekspozitsiya tashkil etiladi. 1975 yilda esa “Buxoro xalq amaliy bezak san‘ati muzeyi” tashkil qilinadi. Unda sakkizta bo‘lim mavjud bo‘lib, ular kulolchilik, badiiy kashtachilik, zargarlik, zardo‘zlik, kandakorlik, chitgarlik, yog‘och o‘ymakorligi, Xitoy va Yaponiya chinni buyumlari bo‘limiga bo‘linar edi.

1987 yil Sitorai Mohi Xosada ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi va mehmonxona binosi “Xonai-hasht”da “XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro shahri aholisining milliy kiyimlari” deb nomlangan yangi ekspozitsiya tashkil etiladi. Ekspozitsiyaga erkaklar, ayollar va bolalarning o‘tgan asrda tayyorlangan kiyimlari qo‘yilgan bo‘lib, ular mahalliy matolardan, gazlamalardan tikilgan. Ko‘rgazmada 120 dan ortiq eksponatlar namoyish etiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach ya‘ni, 1991 yil Buxoro viloyati hokimi Damir Yodgorovning qarori bilan saroyning bog‘i va sanatoriya ixtiyorida bo‘lgan bir qism binolari qaytarib berildi. Saroy bog‘ida qurilishi boshlanayotgan sanatoriya tarkibidagi 180 o‘ringa mo‘ljallangan oilaviy pansionat barpo etish to‘xtatildi. Shuningdek, sanatoriya ixtiyoriga berilgan “Xonai Hasht” ham muzeyga qaytarildi.

1992-yilda Dekorativ – xalq amaliy san‘ati, saroy pavilyonida “XIX – XX asr boshlarida buxorolik shaharliklar milliy kiyimi”, saroy yotoqxonasining birinchi qavatida “XIX – XX asr boshida badiiy kashtachiligi va uy-ro‘zg‘or buyumlari”, 1993-yil 6- noyabrda yotoqxonada ikkinchi qavatida “Saroy mebellari” ko‘rgazmasi tashkil etildi.

Hozirda Sitorai Mohi Xosa saroyida uchta alohida muzey joylashgan bo‘lib, ular saroyning qabulxona qismida “Xalq amaliy san‘ati muzeyi”, sakkiz xonalik ko‘shkda “Buxoroliklarning XIX-XX asrlarga oid milliy kiyimlar muzeyi” va

“Kanizakxona” binosida esa “O‘zbekiston xalqlari etnografiyasi va XIX-XX asrlar Buxoro badiiy kashtachiligi” ko‘rgazmalari tashkil etilgan.

**Xulosa qilib aytganda**, Sitorai Mohi Xosa saroyi bu bebaho umumbashariyat merosi, unda tashkil etilgan ko‘rgazmalar bu mahalliy xalqning asriy qadriyatlari namoyish etishdan iborat. Sovet davrida toptalgan tariximiz mustaqillik tufayli qayta tiklandi va bu saroyda namoyishga qo‘yilgan etnografik ashyolar ko‘rgazmasi xalqimizning moddiy madaniyati namunasidir. Bu har bir o‘lkamiz farzandi qalbida milliy g‘ururni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Болтаев А.Х. Бухоро музейи – тарихий ўлкашунослик маркази сифатида. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 70 б.
2. Болтаев А.Х. Бухоро регистонидаги тарихий иморатлар. //Мозийдан садо. №1. – Тошкент: 2022. – Б. 24-25.
3. Болтаев А.Х. XX аср 40-йиллари Бухорода ташкил қилинган илмий экспедиция // Ўтмишга назар | Взгляд в прошлое | Look to the past №6 (2021) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-6>. – Б. 30-36.
4. Болтаев А.Х. Бухоро ўлкашунослик музейи 100 ёшда (тарих ва таҳлил). // Музейшунослик ХХІ асрда: тадқиқотлар, анъаналар ва инновациялар халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами 2-китоб. – Тошкент, 2022 йил 28 февраль. –Б .207-214.
5. Жумаев Қ., Ситораи Моҳи Хоса. –Тошкент: Фан, 2005. – Б.24.
6. Жумаев Қ. Ситораи Моҳи Хоса халқ амалий санъати музейи //Мозийдан садо. – Тошкент: 2003.- №1. –Б.26.
7. Жумаев Қ. Музейнинг янги кўргазмаси //Бухоро ҳақиқати. 1987, 17 ноябр;
8. Жумаев Қ. Дурдоналар хазинаси// Бухоро ҳақиқати. 1986, 17 май.
9. Жумаев Қ. Ситораи Моҳи Хосса. –Бухоро: Бухоро, 2010. –Б.48.
10. Джураев Ш.Г. Сбор ювелирных изделий и создании выставки в бухарском музее. //Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан

ҳозиргача) мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари.  
– Бухоро: Бухоро, 2020. – С.39-42,

11. Жумаева Н. Ситораи Моҳи Хосса бўйлаб. – Бухоро: 2018. – 88 б.

12. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.

13. Rajabov, O. (2020). Qizbibi va Hazrat Bibi manzilgohlari muqaddas qadamjo sifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).

14. ISKANDAROVICH, R. O. (2021). BUKHARA ISLAMIC SCHOLARS VIII-XII CENTURIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 42-48.

15. Sherzod, O. (2022). ILLUMINATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF TURKESTAN IN THE WORKS OF THE HISTORIAN POLAT SOLIEV. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 37-41.

16. Sherzod O'ktam o'g, N. (2023). TARIXCHI OLIM PO 'LAT SOLIYEV ILMIY ME'ROSIDA TURKISTON TARIXIGA OID AYRIM MASALALAR. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(7), 1283-1290.

17. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.

18. Beshimov, M. (2022). MANG 'ITLAR DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT (me'morchilik, adabiyot va san'at). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 20(20).

19. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 78-83.

20. Beshimov, M. (2021). Mang'itlar davrida Buxoroda madaniy hayot. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 7(7).

21. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.

22. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.